

## **O'QITUVCHINING DARS OLIB BORISH JARAYONIDAGI PEDAGOGIK MAHORATI**

**Mahkamova Shohida Rahmatullayevna**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti

"Musiqa ta'lifi" kafedrasi mudiri

### **ANNOTATSIYA:**

Pedagogik salohiyatni ochirish, va takomillashtirish chora-tadbirlari, yoshlarga bilim berish qobiliyati,

### **Kalit so'zlar:**

Pedagogik, mahorat, izlanishlar, fikrlash qobiliyati, kadrlar tayyorlash, Pedagogik texnikasi.

### **Kirishqism:**

Pedagogik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra individualdir. Har bir pedagogning hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishi, usta (master) juda ilg'or, bilimdon yoki o'z ishini mohirlik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. Pedagoglik mahorati uning faoliyatida ko'rindi. Pedagog eng avvalo, pedagogik jarayon qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega. Mahorat – bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo'lish mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir.

Asosiy qism:

Pedagogik mahoratga uning pedagogik mahorat kasbiy erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishini, pedagogik

texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi. Pedagogik mahorat kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. So'nggi yillardagi ilmiy yondashuvlar bu holatga nisbatan quydagicha xulosa qilishga imkon faoliyat nuqtai nazaridan faoliyatdagagi induviduallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriysi kasbiy induvidualligini xarakterlaydi. Xo'sh pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo'ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalarda pedagogik mahorat tushunchasiga nisbatan turlicha izohlarga duch kelamiz. Bu tushuncha mohiyatining aniqroq ta'rifi "Pedagogik ensiklopediya"da berilgan bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta'rif pedagogik mahorat mazmun – mohiyatini ancha to'g'ri yoritadi. "Tarbiya va o'qitishda yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkonini ta'minlovchi san'at bo'lib, talabaga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevgan, har bir pedagogning qiladigan ishi. O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog-bu yuksak daraja madaniyatli, o'z famini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisidir". Mustaqil O'zbekistonda qurilayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko'rsatadigan pedagog qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhim asos- bu insonparvarlik. Tarbiyananuvchilarini har yuksak darajadagi madaniyatga ega bo'lgan shaxs. U juda ko'p narsani bilishi kerak. Hozirgi zamonda o'zi o'qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi kerak. Pedagog juda mashg'ulotlarni o'rgatib borish uchun o'zi muntazam o'qib, o'rganib, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Pedagogik muloqot pedagogik jarayon mantig'iga mos keladigan dinamik tavsifga ega. Pedagogik muloqotning tuzilishida quyidagi bosqichlar alohida ajratib ko'rsatiladi:

1. Modellashtirish (bashoratga doir) – pedagogik vazifalarga mos o'zaro harakatning kommunikativ tuzilishini o'ziga xos tarzda rejalashtirishni amalga kuni oshirish.
2. Bevosita muloqotni tashkil etish (kommunikativ hujum) – pedagog tashabbuskorlikni o'z qo'liga oladi, guruhni

tezlik bilan ishga jalg etish texnologiyasi

3. Muloqotni boshqarish – qo'llaniladigan ta'sir ko'rsatish metodlarining kommunikativligini ta'minlash (o'quvchilarning tashabbusini qo'llab- quvvatlash, o'quvchilarning tashabbus ko'rsatishini tashkil etish, dialogik muloqotni yo'lga qo'yish, o'z mo'ljalini real sharoit bilan uyg'un tarzda korrektsiyalash.

4. Amalga oshirilayotgan pedagogik muloqot texnologiyasining borishi va natijalarini tahlil etish. Mazkur bosqich ko'pincha o'zining mazmuniga ko'ra muloqotda qayta aloqa bosqichi deb nomlanadi hamda kommunikativ vazifani hal etishning yakuniy bosqichiga mos keladi. Pedagogik muloqotda uchraydigan kamchiliklar quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ehtiyoitsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshni ortiqcha majburlash;

2) passivlik, o'zini yuqori qo'yish;

3) haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish

haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish

Psixologiyada turli tipdagiboshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik

portreti ishlab chiqilgan bo'lib, unda ularning boshqaruvida bo'lgan jamoa bilan

muloqoti texnikasi tahlil qilingan. O'qituvchi ham pedagogik jarayonda muloqotning eng keng tarqalgan uch turidan foydalanadi: avtoritar, demokratik

va liberal. Avtoritar uslub. Ta'lim oluvchilar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hattoki kim qayerda o'tirishigacha o'qituvchi yakka o'zi hal qiladi, ta'lim oluvchilar tomonidan ko'rsatiladigan barcha tashabbusni taqiqlaydi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchining muloqot metodlari sifatida buyruq, ko'rsatma berish va tanbeh xizmat qiladi. Demokratik uslub. Bunda o'qituvchi

jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta'lim oluvchiga etkazishga harakat qiladi, faoliyatning kechishini muhokama qilishga barchani jalg etadi; o'z vazifasini faqat nazorat va munofiqlashtirish deb bilmay, tarbiya bilan ham shug'ullanadi; barcha ta'lim oluvchilarni rag'batlantiradi va ularda o'z- o'ziga ishonchni shakllantiradi; jamoada

o'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchi barcha jamoa

a'zolarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o'rtaida

vazifalarni teng bo'lishga harakat qiladi; tashabbus va faollikni rag'batlantiradi. Bunday o'qituvchining muloqotda qo'llaydigan metodlari – iltimos, maslahat, axborot berishdir. Liberal uslub – boshqacha qilib aytganda, anarxik. O'qituvchi jamoa hayotiga umuman aralashmaslikka harakat

qiladi, faolligi sust, muammolarni yuzaki ko'rib chiqadi, boshqalarning ta'siriga oson tushib qoladi. Ma'sulyatdan o'zini olib qochadi va o'z avtoritetini yo'qotadi. V.A.Kan-Kalik pedagogik muloqotni munosabatlар va o'zaro ta'sir uslublari tashkil etishini ta'kidlab, ularni quyidagi tarzda turkumlaydi:

1) hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo'lgan qiziqishga asoslangan

muloqot. Hamkorlikda olib boriladigan ishga ishga bo'lgan qiziqish asosidagi

muloqotda pedagog ta'lim oluvchilar va ishga nisbatan ijobiy yondashadi;

2) do'stona munosabatlар asosida qurilgan muloqot. Do'stona munosabatlар

asosida qurilgan muloqot yuqorida ko'rib chiqilgan muloqot turiga yaqindir. Ayrim pedagoglar do'stona muloqotni noto'g'ri tushunib, chegaradan chiqib ketishadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtaida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Ushbu masofani aniqlashda o'qituvchining madaniyati, pedagogik takti muhim rol o'ynaydi;

3) o'qituvchi va ta'lim oluvchilarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqot. Ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotni ham samararali deb bo'lmaydi. Shunga qaramasdan bu keng tarqalgan uslubdir. Bunda pedagog

va tarbiyalanuvchilar o'rtaida ma'lum chegara mavjud bo'lib, ularni quyidagicha

ta'riflash mumkin: "Men bilaman – sizlar bilmaysizlar"; "Meni aytganimni qilinglar – yoshim kattaroq, tajribam ko'proq, bizni tenglashtirib bo'lmaydi". Bu uslub ko'proq avtoritarga yaqinroq bo'lib, u tashqaridan qaraganda tartibli faoliyatni amalga oshirishga yordam berganday bo'ladi, lekin yuqori samarani bermaydi;

4) qo'rkitishga asoslangan muloqot.

O'qituvchi va ta'lif oluvchilarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotning yuqori darajadagi ko'rinishi qo'rqtishga asoslangan muloqotdir.

U o'zida ta'lif oluvchilarga salbiy munosabat va avtoritar boshqaruvni majassam etadi. Ushbu uslubni yorqin ifodasi sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin: "Qunt bilan tinglanglar, bo'lmasa ikki qo'yaman", "Hali kunlaringni ko'rsataman". Bunday uslub mashg'ulot paytida salbiy muhitni yuzaga keltiradi.

Demak, pedagog, pedagogik mahoratining asosiysi o'z ustida mustaqil o'qishidir. O'zbekiston mustaqillika erishgandan keyin ta'lif-tarbiya sohasida, milliy ahloq– odobni qayta tiklash borasida, milliy urf– odatlar ana'nalarni joy-joyiga qo'yish milliy qadiriyatlarni yanada rivojlantirish xususida buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayon. Davlatning buyuk kelajagi, lbatta, yoshlarni chuqur bilim va pokiza odob-ahloqli qalb egasi ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarning o'rni muhim va pedagogik mahorat fanning roli ulkan. O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zlarining qator nutqlari va asarlarida ta'lif- tarbiya masalalariga to'xtalar ekanlar, eng avvalo, pedagoglik kasbiga e'tibor berib, bu mashaqqatli va sharafli ekanligini jamiyatimizda ta'lif berish tizimini zamon talablari asosida yangilash, munosib avlodni shakllantirishni faoliyati bilan bog'lab, uning o'zida ana shu xususiyatlar bo'lishini ko'rsatib turadi. Pedagogik mahorat – tug'ma yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zamirida ijodiy mehnat yotadi. Pedagogik mahorat egasi kam kuch (mehnat) sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlarini va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, pedagogik texnikasi ahamiyatga molik bo'ladi.

Mahorat – bu alohida qudrat. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zal bo'lganidek, mohir – tajribali o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda, olib borishdagi mahorati, pedagogik ishga qobiliyatligi bilan jamoasi orasida obro' ortiradi va pedagoglik faoliyatini go'zallashtiradi. Pedagogik mahoratga etishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy qismlarini ajratish mumkin:

1. Pedagogik insonparvarlik yo'nalishi.
2. Ixtisos-mutaxassislikka doir bilimlar. (kasbiy bilimlar)
3. Pedagogik qobiliyat.
4. Pedagogik texnika (ko'nikma)

O'qituvchilik dunyodagi eng qadimgi o'zahamiyati hech qachon kamaymaydi, so'nmaydi. O'qituvchilik kasbi bir qator muhim talablarga javob berishi kerak.

Pedagogik mahorat asosan o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik mahoratga erishish uchun o'z faoliyatini boshqarish qobiliyati, yuqori bilim, etarli malaka va ko'nikmalar bo'lishi talab qilinadi.

Pedagogik mahoratni egallah uchun o'qituvchi doimo o'z ishini tahlil qila bilishi, o'ziga o'quvchilar nazari bilan qaray olishi va kamchiliklarni tuzatish uchun tinimsiz izlanishi zarur. O'qitish jarayonida pedagog o'z faoliyatining samarali bo'lishi uchun pedagogik texnologiyani yaxshi bilishi, uning yangi-yangi yo'llarini yarata oladigan va ijodiy ishlaydigan pedagogik mahorat egasi bo'lishi zarur. O'qituvchi pedagogik mahoratga erishish uchun: pedagogik takt va hodisalarini umumlashtira olishi, o'zining va o'quvchilarning faoliyatini boshqara olish qobiliyati, yuqori bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab qilinadi. Demak, o'qituvchi – o'quvchining shaxsiy faolligini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltira olishi zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.R.Makhkamova "Имконияти чекланган болалар ва хар томонлама етук авлодни тарбиялашда мусиканинг ўрни" 2020

2. M.S. Muxiddinova "Мактабгача таълим ташкилотларида ахборот-компьютер технологияларини мусиқа тарбияси воситаси сифатида кўллашнинг хусусиятлари" 2020 yil
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. Izdatelsko-poligraficheskiy tvocheskiy dom im.Chulpana.T.; 2005. -200 s
4. Levitan K.M. Lichnost pedagoga: stanovleniye i razvitiye. Izd-vo Saratovskogo universiteta. 1991. -166 s.
5. Mavlonova R., To'rayeva O. Holqberdiyev K. Pedagogika. T.,O'qituvchi. -2001. – 512 b.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.
7. Mahkamova Sh.R. Таълим жараёнида ўқувчи ва талабалар билимини баҳолаш усуллари ва методикаси // "Экономика и социум" №11(90) 2021//
8. T.Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.2010 y.